



**“YOSH VERTERNING IZTIROBLARI” ASARINING NEMIS
ADABIYOTIDAGI O‘RNI**

Marqayev Komil Sherqulovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

“Filologiya” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Yohann Volfgang Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” romani nemis adabiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Asarning yaratilish sharoiti, epistolyar shakli, "Sturm und Drang" harakati doirasidagi o‘rni, ijtimoiy rezonansi va romantik adabiyotga qo‘shgan hissiy yoritilgan. Shuningdek, roman orqali nemis adabiyotida psixologik chuqurlik, shaxsiy kechinmalar va individualizm tamoyillarining qanday shakllangani ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Gyote, Verter, nemis adabiyoti, romantizm, epistolyar roman, Sturm und Drang, individualizm, psixologik portret, Verter sindromi, adabiy ta’sir.

Annotation

This article analyzes Johann Wolfgang von Goethe’s novel The Sorrows of Young Werther and its significance in German literature. It explores the historical context of the work, its epistolary structure, its place within the Sturm und Drang movement, its social resonance, and its contribution to the development of Romantic literature. The article also examines how the novel helped shape psychological depth, emotional introspection, and the principles of individualism in German literary tradition.

Keywords: Goethe, Werther, German literature, Romanticism, epistolary novel, Sturm und Drang, individualism, psychological portrait, Werther syndrome, literary influence.



Аннотация

В данной статье анализируется роман Иоганна Вольфганга Гёте «Страдания юного Вертера» и его значение в немецкой литературе. Рассматриваются исторические условия создания произведения, его эпистолярная форма, место в рамках движения «Буря и натиск», общественный резонанс и вклад в развитие романтизма. Особое внимание уделяется тому, как роман повлиял на формирование психологической глубины, личностных переживаний и принципов индивидуализма в немецкой литературной традиции.

Ключевые слова: Гёте, Вертер, немецкая литература, романтизм, эпистолярный роман, Буря и натиск, индивидуализм, психологический портрет, синдром Вертера, литературное влияние.

Yohann Wolfgang Gyote (1749–1832) Yevropa adabiyotining eng ulug‘ vakillaridan biri bo‘lib, u nemis milliy adabiyotining shakllanishi va yuksalishida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Uning 1774-yilda yozgan “Yosh Vertering iztiroblari” (Die Leiden des jungen Werthers) romani nemis adabiyotida yangi davrni boshlab bergan, adabiy-estetik mezonlarga yangicha yondashuv olib kirgan asar sifatida e’tirof etiladi. Roman yozilgan davr nemis adabiyotining klassitsizm va Aufklärung (ma’rifatparvarlik) bosqichlaridan o‘tib, yangi, hissiyotlarga boy, shaxsiy kechinmalarni ifoda etishga intilayotgan bosqichiga to‘g‘ri kelgan. Ana shu davrda Vertering o‘ziga xos obrazini yaratgan Gyote nemis adabiyotiga romantizmning ilk nafasi va individualizm tamoyilini olib kirdi.

Gyote bu asarni 25 yoshida, nihoyatda hissiy kechinmalar girdobida yozgan. Asarning yuzaga kelishida muallifning shaxsiy hayoti, ayniqsa Charlotta Buffga bo‘lgan qayta javobsiz muhabbati muhim rol o‘ynagan. Shu bilan birga, Gyotening do‘sti Karl Yeronimus Lottsening o‘z joniga qasd qilgani roman voqealariga asos bo‘lgan. Ushbu shaxsiy tajribalar Verter obrazida chuqur psixologik qatlamda o‘z aksini topadi.

Roman yaratilgan tarixiy muhit ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega. XVIII asrning ikkinchi yarmida Germaniya hali yagona davlat emas edi – u yuzlab mayda knyazliklardan iborat bo‘lib, siyosiy parokandalik, feodal aristokratiyaning kuchi va ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi tafovutlar keskin edi. Jamiyatda bo‘layotgan ijtimoiy



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th April, 2025

adolatsizlik, fuqarolarning siyosiy va shaxsiy erkinlikdan mahrumligi yosh avlod orasida norozilik kayfiyatini kuchaytirgan.

Bundan tashqari, Gyote yashagan davrda ma'rifatparvarlik (Aufklärung) g'oyalari keng yoyila boshlagan edi. Inson aql-zakovati, ma'naviy o'sish va taraqqiyot g'oyalari nemis ziyolilari orasida kuchayib borayotgan bo'lsa-da, bu idealist qarashlar bilan haqiqatdagi ijtimoiy vaziyat o'rtasida ziddiyat mavjud edi. Aynan shu tafovut Gyoteni, shuningdek, "Sturm und Drang" harakatining boshqa vakillarini his-tuyg'ularni, individual shaxsiyatni ulug'lashga undagan.

Falsafiy jihatdan esa, Immanuil Kantning ong va axloq haqidagi nazariyalari, J.J.Russoning tabiiy inson haqidagi qarashlari bu davr muhitida shakllangan tafakkur oqimlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Gyote ushbu falsafiy oqimlardan ilhomlanib, inson qalbining ichki ziddiyatlari, jamiyat bilan bo'lgan qarama-qarshiliklarini estetik badiiyat orqali ifoda etgan. Shu jihatdan "Yosh Verterning iztiroblari" – bu faqat shaxsiy drama emas, balki o'z davrining madaniy, falsafiy va ijtimoiy muammolarining badiiy in'ikosidir. "Yosh Verterning iztiroblari" romanining eng muhim xususiyatlaridan biri – uning epistolyar shaklda yozilganidadir. Epistolyar roman – voqealar xat shaklida hikoya qilinadigan janr bo'lib, bu usul XVIII asrda G'arb adabiyotida ancha mashhur edi. Ammo Gyote bu shaklga o'ziga xos ruh, ichki chuqurlik va poetik estetikani olib kirgan holda uni yangi bosqichga ko'tardi.

Asarning butun syujeti bosh qahramon Verterning o'z do'sti Vilyelmga yozgan maktublari orqali ochiladi. Bu maktublar orqali o'quvchi faqat voqealar rivojini emas, balki Verterning ichki olamini, kechinmalarini, sevgi, g'am, yolg'izlik va umidsizlik kabi hissiyotlarni chuqur anglaydi. Ushbu shakl Verterning fikrlash tarzini, hissiyotlarining o'zgaruvchanligini, shaxsiy izlanishlarining murakkabligini jonli va realistik tarzda ochib beradi.

Gyote epistolyar janr orqali psixologik portret yaratishda nihoyatda katta mahorat ko'rsatadi. Har bir maktub Verterning ruhiy ahvolidagi o'zgarishlarni bosqichma-bosqich namoyon qiladi. Maktublar orqali keltirilgan tabiat tasvirlari, Lotta bilan bo'lgan uchrashuvlar, jamiyatga nisbatan norozilik hissi va nihoyat, o'z joniga qasd qilish qarori – bularning barchasi o'quvchini qahramonning ichki olamiga chuqur kirib borishiga yordam beradi.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th April, 2025

Uslubiy jihatdan asarda kuchli lirizm, obrazli ifodalar, emotsional intensivlik va romantik tafakkurga xos bo'lgan kuchli his-tuyg'ular mavjud. Verterning tilida qat'iy sintaktik qurilishdan ko'ra hissiy impulsiga asoslangan so'z oqimi ustunlik qiladi. U har bir holatni estetik kechinma, hayotiy falsafa va ichki kechinma bilan boyitib ifodalaydi.

Bundan tashqari, Gyote bu roman orqali maktub janrining o'ziga xos badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Har bir maktub o'zicha yakuniy kichik badiiy parchadir. Asar davomida Gyote lirika va prozaning chegarasini bartaraf etadi – xatlar gohida poeziyaga xos ohangdorlik bilan bezatilgan, gohida esa falsafiy fikrlar va hayotiy kuzatishlarga boy bo'ladi.

Bu uslub o'sha davr nemis adabiyotidagi klassik me'yorlarga zid edi. Klassik adabiyot mantiqiylik, qat'iy kompozitsiya va ijtimoiy uyg'unlikni ulug'lasa, Gyote Verterning kechinmalari orqali shaxsiy erkinlik, ichki inqiroz va jamiyatga qarshi norozilik ruhini ifoda etadi.

Shuni ta'kidlash joizki, XVIII asr oxirlarida "Sturm und Drang" ("Bo'ron va tazyiq") – Germaniyada yuzaga kelgan va qisqa muddat ichida nemis adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan adabiy-falsafiy harakatdir. Ushbu oqim o'z nomi bilan shaxsiy ehtirolarning kuchi, ichki ziddiyatlar, jamiyatning qat'iy me'yorlari va ijtimoiy to'siqlarga qarshi norozilik kayfiyatini ifoda etadi. "Sturm und Drang" klassitsizmning ratsional va tartibga solingan dunyoqarashiga qarama-qarshi bo'lib, inson qalbidagi impulsiv kuchlar, tabiatga yaqinlik, individual huquq va ijodiy erkinlikni ulug'lagan. Aynan mana shu harakat nemis romantizmining shakllanishiga zamin yaratgan edi.

Yosh Gyote bu harakatning asoschilaridan biri sifatida qaraladi. Uning "Yosh Verterning iztiroblari" asari harakatning g'oyaviy-estetik tamoyillarini eng yorqin ifoda etgan badiiy namunadir. Verter – bu harakat idealining jonli timsolidir: u jamiyat tomonidan tan olinmaydigan, biroq o'zini va dunyoni teran his qiladigan, tabiat bilan uyg'un yashovchi, ichki ovozigacha quloq soladigan insonsifat obrazi bilan gavdalanadi. Verter o'zining his-tuyg'ularini erkin ifoda etadi, muhabbatda to'laonli bo'lishni istaydi, lekin ijtimoiy tuzum va an'anaviy me'yorlar unga bu imkonni bermaydi. Gyote o'zi yaratgan Verter obrazining jamiyat bilan ziddiyatini quyidagicha ifodalaydi:



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th April, 2025

“Men bu dunyo bilan murosqa qilolmayman, chunki menimcha, ular menga nisbatan adolatsiz. Ular faqat ko‘nikish istaydilar, his qilishni esa unutadilar.”

Verterning shaxsiy iztiroblari aslida faqat ichki drama emas, balki ijtimoiy tizimga, axloqiy bosimga va ma‘rifatparvarlik g‘oyalari bilan haqiqatdagi amaliyot o‘rtasidagi nomuvofiqlikka bo‘lgan norozilikdir. U shunchaki romantik sevgi bilan iztirob chekayotgan qahramon emas, balki “Sturm und Drang”ning isyonkor ruhiga ega bo‘lgan individual qahramondir. Uning o‘z joniga qasd qilish qarori – jamiyat tomonidan rad etilgan, o‘z his-tuyg‘ularini yashay olmagan shaxsning fojiaiy isyoni sifatida talqin etiladi.

Ushbu harakat vakillari – Gyote, Shiller, Lenz, Klinger, Hamann va Herderlar inson ruhiyatining murakkabliklarini, g‘azab, muhabbat, shubha, umidsizlik kabi holatlarni adabiy ifodaning markaziga olib chiqqanlar. “Yosh Verterning iztiroblari” esa bu holatlarning psixologik portretini yaratgan ilk namunadir.

Shuningdek, asardagi tabiatga bo‘lgan munosabat ham bu harakatning asosiy tamoyillaridan biri – tabiiylikka, insoniy instinkt va sezgi kuchiga qaytish g‘oyasini yoritadi. Verter tabiatda taskin topadi, unda o‘zining ruhiy holatini aks ettiradi. Bu esa tabiatni passiv fon emas, balki aktiv hissiy-tasviriy muhit sifatida qabul qilishning badiiy namunasi bo‘lib xizmat qiladi. “Yosh Verterning iztiroblari” nafaqat “Sturm und Drang” harakati doirasida yozilgan, balki bu harakatning asosiy g‘oyalarini shakllantirgan, estetik va falsafiy tamoyillarini ifoda etgan markaziy asardir. Verter obrazi esa nafaqat Gyotening ijodida, balki butun nemis adabiyotida mustaqil va teran psixologik qahramon sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan.

“Yosh Verterning iztiroblari” – nafaqat Gyotening, balki butun nemis adabiyotining taraqqiyotida burilish yasagan, yangi adabiy paradigmaning asosini yaratgan, adabiyotni ijtimoiy va ruhiy ong shakllantirish vositasi sifatida namoyon qilgan asardir. U romantizmning poydevorini qo‘ygan, adabiyot orqali individual erkinlik va shaxsiy kechinmalarni ulug‘lagan kuchli estetik-badiiy namunadir.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Iogann Wolfgang Gyote. Yosh Verterning iztiroblari. Elezabet print. Toshkent – 2018. 196 b.
2. Jabborovich, X. J., & Sherkulovich, M. K. (2020). Lexicographic study of ethnonymy semantics. *Test Engineering and Management*, 83(5-6), 737-742.
3. Бобокалонов, Р. Р., Курбанов, П. А., Маркаев, К. Ш., & Хайтов, Ч. (2016). ДОСТИЖЕНИЯ УЗБЕКСКИХ УЧЕНЫХ В ОБЛАСТИ ЛИНГВИСТИКИ ТЕКСТА НА ОСНОВЕ НАУЧНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. *International scientific journal*, 30.
4. SHERQULOV, S. TRAGEDY IN WILLIAM FAULKNER'S "THE SOUND AND THE FURY". О 'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022,[1/3 ISSN 2181-7324.
5. Komilovich, S. S. (2024). QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA ADABIY TA'SIR MASALALARI. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 4, pp. 492-495).
6. Komilovich, SS (2023). TOG 'AY MUROD IJODIDA UILYAM FOLKNER ASARLARI TA'SIRI. Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqot jurnali , 7 (1), 75-77.
7. Abdumannonovna, A. D. (2025, March). "MARJONLAR O'YINI" ROMANIDA G'ARB VA SHARQ TAFAKKURINING SINTEZI. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 80-87).
8. Abdumannonovna, A. D. (2025, March). HERMANN HESSE IJODIDA ROMANTIZM. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 72-79).
9. Abdumannonovna, A. D. (2025, April). "MARJONLAR O 'YINI" ROMANIDA INTELLEKTUAL DUNYO VA REAL HAYOTNING AJRALISHI MUAMMOSI. In International Conference on Economics, Finance, Banking and Management (pp. 169-176).